

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**“Gidrotexnika qurilishi” fakulteti
“Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi” kafedrasи**

Mavzu: To'g'ri chiziq kesmasini berilgan nisbatda bo'lish. Xususiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqlar. Xususiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqlarning ortogonal proyeksiyalari

Ma'ruzachi, PhD

J.A.Qosimov

**MAVZU: TO'G'RI CHIZIQ KESMASINI BERILGAN NISBATDA
BO'LISH. XUSUSIY VAZIYATDAGI TO'G'RI CHIZIQLAR.
XUSUSIY VAZIYATDAGI TO'G'RI CHIZIQLARNING
ORTOGONAL PROYEKSIYALARI.**

O'quv mashg'ulotiningm maqsadi:
To'g'ri chiziq kesmasini berilgan nisbatda bo'lism, xususiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqlar va ularning ortogonal proyeksiyalari qurishni talabalarga o'rgatish.

REJA:

1. TO'G'RI CHIZIQ KESMASINI BERILGAN NISBATDA BO'LISH.
2. XUSUSIY VAZIYATDAGI TO'G'RI CHIZIQLAR.
3. PROYEKSIYALAR TEKISLIGIGA PARALLEL TO'G'RI CHIZIQLARNING ORTOGONAL PROYEKSIYALARI.
4. PROYEKSIYALOVCHI TO'G'RI CHIZIQLARNING ORTOGONAL PROYEKSIYALARI.

TEZKOR SAVOL-JAVOBLAR




- 1. Proyeksiyalar tekisliklari to'g'risida qanday tushunchaga egasiz?**
- 2. Nuqta, to'g'ri chiziq deganda nimani tushunasiz ?**
- 3. Umumiy va xususiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqlar to'g'risida qanday tushunchaga egasiz?**

1-SAVOL. TO'G'RI CHIZIQ KESMASINI BERILGAN NISBATDA BO'LISH

Parallel proyeksiyalashning xossasiga asosan biror nuqta fazodagi to'g'ri chiziq kesmasini qanday nisbatda bo'lisa, uning bir nomli proyeksiyalari to'g'ri chiziq kesmasining proyeksiyalarini ham shunday nisbatlarga bo'ladi.

1-rasmda berilgan chizmaga asosan C nuqta AB kesmani AC:CB nisbatda bo'lgan deb qabul qilinsin. Yuqorida xossaga binoan, C nuqtani proyeksiyalari AB kesmaning proyeksiyalarini xuddi shunday nisbatlarda bo'ladi, ya'ni $AC:CB=A'C':C'B'=A''C'':C''B''$.

To'g'ri chiziqli nuqtaning bunday xususiyatidan foydalanib, har qanday to'g'ri chiziq kesmasini ixtiyorli nisbatda proporsional bo'laklarga bo'lish mumkin.



2-SAVOL. XUSUSIY VAZIYATDAGI TO'G'RI CHIZIQLAR




Fazodagi to'g'ri chiziq proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan umumiyl yoki **xususiy vaziyatda bo'lishi** mumkin.

Ta'rif. Proyeksiyalar tekisliklarining birortasiga parallel yoki perpendikulyar bo'limgan to'g'ri chiziq **umumiyl vaziyatdagi to'g'ri chiziq** deyiladi.

Ta'rif. Proyeksiyalar tekisligiga parallel yoki perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq **xususiy vaziyatdagi to'g'ri chiziq** deyiladi.

Agar to'g'ri chiziq proyeksiyalar tekisligidan biriga parallel bo'lsa u shu tekislikning nomi bilan ataladi. Masalan, Hga parallel bo'lsa **gorizontal to'g'ri chiziq** deyiladi.

Agar to'g'ri chiziq proyeksiyalar tekisligidan biriga perpendikular bo'lsa u proyeksiyalovchi termini va shu tekislikning nomi bilan ataladi. Masalan, Hga perpendikular bo'lsa **gorizontal proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq** deyiladi.





3-SAVOL. PROYEKSIYALAR TEKISLIGIGA PARALLEL TO'G'RI CHIZIQLARNING ORTOGONAL PROYEKSIYALARI.

1. Gorizontal to'g'ri chiziq. Gorizontal proyeksiyalar tekisligi H ga parallel to'g'ri chiziq *gorizontal chiziq* (yoki *gorizontal*) deb ataladi.

Gorizontal to'g'ri chiziqning H dagi proyeksiyasi fazodagi kesmaning haqiqiy uzunligiga teng bo'ladi: $AB=A'B'$.

Gorizontal to'g'ri chiziqning frontal proyeksiyasi OX o'qiga ($A''B''=OX$), profil proyeksiyasi OY o'qiga parallel bo'ladi ($A'''B'''=OY$).





2-SAVOL. PROYEKSIYALAR TEKISLIGIGA PARALLEL TO'G'RI CHIZIQLARNING ORTOGONAL PROYEKSIYALARI

2. Frontal to'g'ri chiziq. Frontal proyeksiyalar tekisligi V ga parallel to'g'ri chiziq *frontal chiziq* (yoki *frontal*) deb ataladi.

Frontal to'g'ri chiziqning V dagi proyeksiyasi fazodagi kesmaning haqiqiy uzunligiga teng bo'ladi: $AB=A''B''$.

Frontal to'g'ri chiziqning gorizontal proyeksiyasi OX o'qiga ($A'B'=OX$), profil proyeksiyasi OZ o'qiga parallel bo'ladi ($A'''B'''=OZ$).





2-SAVOL. PROYEKSIYALAR TEKISLIGIGA PARALLEL TO'G'RI CHIZIQLARNING ORTOGONAL PROYEKSIYALARI

3. Profil to'g'ri chiziq. Profil proyeksiyalar tekisligi W ga parallel to'g'ri chiziq *profil chiziq (yoki profil)* deb ataladi

Profil to'g'ri chiziqning W dagi proyeksiyasi fazodagi kesmaning haqiqiy uzunligiga teng bo'ladi: $AB=A''B'''$.



Profil to'g'ri chiziqning gorizontal proyeksiyasi OY o'qiga ($A'B'=OY$), frontal proyeksiyasi OZ o'qiga parallel bo'ladi ($A''B''=OZ$).



4-SAVOL. PROYEKSIYALOVCHI TO'G'RI CHIZIQLARNING ORTOGONAL PROYEKSIYALARI



Proyeksiyalar tekisligiga perpendikulyar to'g'ri chiziqlar. Proyeksiyalar tekisligiga perpendikulyar to'g'ri chiziqlar *proyeksiyalovchi to'g'ri chiziqlar* deb ataladi.

1. Gorizontal proyeksiyalovchi to'g'ri chiziqlar. Gorizontal proyeksiyalar tekisligi H ga perependikulyar to'g'ri chiziq *gorizontal proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq* deb ataladi.





4-SAVOL. PROYEKSIYALOVCHI TO'G'RI CHIZIQLARNING ORTOGONAL PROYEKSIYALARI

2. Frontal proyeksiyalovchi to'g'ri chiziqlar. Frontal proyeksiyalar tekisligi V ga perependikulyar to'g'ri chiziq *frontal proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq* deb ataladi.



4-SAVOL. PROYEKSIYALOVCHI TO'G'RI CHIZIQLARNING ORTOGONAL PROYEKSIYALARI


3. Profil proyeksiyalovchi to'g'ri chiziqlar. Frontal proyeksiyalar tekisligi W ga perependikulyar to'g'ri chiziq *profil proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq* deb ataladi.



TESTLAR


1. Qanday vaziyatdagi to'g'ri chiziqning proyeksiyalari berilgan?

- A) Frontal to'g'ri chiziq
- B) Frontal proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq
- C) Gorizontal to'g'ri chiziq
- D) Profil proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq.



2. Berilgan to'g'ri chiziq proyeksiyalar tekisligiga nisbatan qanday vaziyatda joylashgan?


- A) Frontal to'g'ri chiziq
- B) Umumiyl vaziyatdagi to'g'ri chiziq.
- C) Gorizontal to'g'ri chiziq
- D) Profil to'g'ri chiziq



TESTLAR


3. Qanday vaziyatdagi to'g'ri chiziqning proyeksiyalari berilgan?

- A) Frontal to'g'ri chiziq
- B) Frontal proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq
- C) Gorizontal to'g'ri chiziq.
- D) Profil proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq



4. Berilgan to'g'ri chiziq proyeksiyalar tekisligiga nisbatan qanday vaziyatda joylashgan?


- A) Proyeksiyalovchi vaziyatda.
- B) Umumiyl vaziyatdagi
- C) Proyeksiyalar tekisligiga parallel vaziyatda
- D) To'g'ri javob yo'q



TESTLAR


5. Qanday vaziyatdagi to'g'ri chiziqning proyeksiyalari berilgan?

- A) Frontal to'g'ri chiziq.
- B) Frontal proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq
- C) Gorizontal to'g'ri chiziq
- D) Profil proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq



6. Qanday vaziyatdagi to'g'ri chiziqning fazoviy holati berilgan?


- A) Frontal to'g'ri chiziqni
- B) Umumiyl vaziyatdagi to'g'ri chiziqni
- C) Gorizontal to'g'ri chiziqni.
- D) Profil to'g'ri chiziqni



TESTLAR


7. Ushbu to'g'ri chiziq Hga nisbatan qanday vaziyatda joylashgan?

- A) Parallel
- B) Perpendikular
- C) Umumiyl vaziyatda.
- D) To'g'ri javob yo'q



8. Ushbu to'g'ri chiziq Vga nisbatan qanday vaziyatda joylashgan?


- A) Parallel
- B) Perpendikular.
- C) Umumiyl vaziyatda
- D) To'g'ri javob yo'q



TESTLAR

9. Ushbu to'g'ri chiziq Wga nisbatan qanday vaziyatda joylashgan?

- A) Parallel.
- B) Perpendikular
- C) Umumiyl vaziyatda
- D) To'g'ri javob yo'q



10. Ushbu to'g'ri chiziq Vga nisbatan qanday vaziyatda joylashgan?

- A) Parallel
- B) Perpendikular
- C) Umumiyl vaziyatda.
- D) To'g'ri javob yo'q

